

QORAQALPOQLARNING XVII–XIX ASRLARDAGI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI

Jumaniyazova F.M.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus shahri

XVII-XIX asrlarning birinchi yarmida Aral atrofida yashagan qoraqalpoqlarning shahar hamda qishloq manzillari bo‘lganini rossiyalik sayyohlar, elchilar va savdogarlar yozib qoldirgan. Aral bo‘ylarida yashagan qoraqalpoqlar hamda arallik o‘zbeklarda qadim zamonlardan boshlab shahar madaniyati rivojlangan. Shahar madaniyati o‘troq xalqlargagina xosdir.

Mahalliy arxeologlar M.Mambetullaev, J.Turmanov hamda O.Yusupovlarning Kerder (Hayvon qala), Kuyik qala ustidagi arxeologik tadqiqotlari Kerder madaniyati qoraqalpoqlarning an‘ana va turmush darajasiga yaqin ekanini ko‘rsatdi.

XVIII asr yozma manbalarida Aral bo‘yi xalqlari – qoraqalpoqlar haqida ma‘lumot beriladi. 1740-1742 yillarda D.Gladyshov va I.Muravinning “Missiya” hisobotida Shaxtemir hamda Qo‘ng‘irot shaharlari haqida aytiladi. Biroq Shaxtemir o‘sha davrning o‘zida “g‘onirib to‘zib, ilashiq qora uylardan boshqa qurilishlar bo‘lmagan” degan ma‘lumotlar keltirilgan. Bu ma‘lumotdan biz Shaxtemir shahrining XVIII asrda barpo etilmay, undan oldin tiklangan qadimiy shahar ekanini bilamiz. Shaxtemir hozirgi Shimboy atrofida joylashgan degan fikr mavjud.

Shaxtemir–Shimboy oralig‘idan XVI–XVIII asrlarda o‘ng qirg‘oqdagi Amudaryoda muhim bo‘lgan Kесе yo‘l – savdo yo‘li o‘tgan bo‘lib, u qoraqalpoqlarni Qozog‘iston va Rossiya bilan bog‘lab turgan. Shaxtemirda XVI asrdan boshlab shu hududning savdo, hunarmandchilik hamda ma‘muriy (rasmiy) markazi bo‘lgan. Dastlab Shaxtemir 1625-yilda shakllangan Aral hokimligining markazi bo‘lgan, XVIII asrda esa Kegayli kanali bo‘yidagi yirik qo‘rg‘on-shahar hisoblangan. Yozma manbalarga ko‘ra, Aral atrofidagi ikkinchi yirik shahar – Qo‘ng‘irot bo‘lgan. XVII asr oxirida Qarabaylining g‘arbiy tomonida Mang‘it shahar mavjud bo‘lgan [2. – 44-48 b].

Aral, Sirdaryo hamda Amudaryo bo‘ylari atrofida yashagan qoraqalpoqlarning shahar madaniyati izlari arxeologik tadqiqotlar bilan ham tasdiqlanadi. S.P.Tolstov tashkil etgan Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi (1932-1962 yillar) Janadaryo, Aqsha daryo, Ko‘k o‘zek bo‘ylarida qoraqalpoqlarga tegishli tarixiy joylar bilan bir qatorda XVIII-XIX asrlarning birinchi yarmiga oid shaharlar, qo‘rg‘onlar, maqbaralar va qishloq manzillarini topdi hamda dastlabki tadqiqotlarni olib bordi. Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari 1950-1951 yillarda XVIII-XIX asr boshlariga oid qoraqalpoqlarning tarixiy yodgorligi – O‘rinboy qal‘asini o‘rgangan. O‘rinboy qal‘asi qadimdan qoraqalpoq dehqonlarining sug‘orish tarmoqlarini nazorat qilib turish uchun mang‘it O‘rinboy biy tomonidan qurilgan. Bu shahar misolida yirik qoraqalpoq feodallari o‘zaro munosabatlarini tartibga solib turganini ko‘rish mumkin. O‘rinboy qal‘asi qoraqalpoq biylari va atalqlarining qo‘rg‘on-manzili (shahar) vazifasini bajargan. Bu yodgorlik bir vaqtlar suvi mo‘l bo‘lgan, keyinchalik qurib

qolgan. Janadaryo bo'yida joylashgan. Bu yodgorlik egasi Xiva tarixchisi Munisning ma'lumotiga ko'ra, mang'itlardan O'rinboy biy tomonidan qurilgan. Bu davr Xiva xoni Muhammad Rahimxon zamoniga to'g'ri keladi. U qoraqalpoqlarning ayrim urug'larini o'ziga bo'ysundirib, Kegayli havzasiga ko'chirgan. Ehtimol, aynan o'sha paytlarda O'rinboy qal'asi egasi tomonidan tashlab ketilgan bo'lishi mumkin. "Qal'a" maydonining o'lchami 30x20 metr bo'lgan yirik inshoot. Devorlari loy-paxsadan qurilgan bo'lib, 4-6 qavatgacha saqlanib qolgan.

Qo'rg'on-shahar ichida sakkizta xona bo'lib, ayrimlari uch tomonli tokchalar bilan bezatilgan. Xonalarda, shuningdek, loydan sovuq paytda o'yilgan geometrik naqshlar mavjud. Atrofdagi xonalar markazida katta ayvon yoki hovli joylashgan bo'lib, unda qishda qora uy (chodir) o'rnatilgan degan fikr mavjud. Unga yaqin joyda namoz o'qish uchun mihrabli inshoot – uy masjidi qurilgan. Qo'rg'on manziliga kirish uchun ikki eshik mavjud. Birinchisi ayvon-hovliga, ikkinchisi esa yo'lak (koridor) orqali ichki yopiq hovli va yashash xonalariga olib boradi.

Qo'rg'on atrofi xandaq (or) bilan o'ralgan, biroq xandaq va qo'rg'on devori orasida yarim yopiq yog'och ustunlarning qoldiqlari saqlangan. Uy oldida katta hovuz o'rni bor bo'lib, unga suv olib keluvchi ariq yo'nalgan. Hovuz yonida yirik molxona (molxur) qurilgan, bu esa katta qo'rg'on-shahar majmuasining orqa tomonida uzumzor, bog' va poliz ekinlari o'stirilgan bog' majmuasi joylashganini ko'rsatadi [1. – 51-57 b].

Bu bog'-qo'rg'onshahar tashqaridan paxsa devor bilan o'ralgan bo'lib, maydoni 300x250 metrni tashkil etadi. Bunday yirik hajmdagi qo'rg'on-shaharlar Xorazmda hamda Aral bo'ylarida qullik davrlaridan beri ma'lum bo'lgan. Ushbu yirik qo'rg'on-shahar devorlari ichida o'z vaqtida Mang'it biyining boshqaruvidagi qoraqalpoqlar o'z uy-joylarida hayot kechirganlar degan fikrlar mavjud. Janadaryo bo'yida joylashgan yana bir qoraqalpoqlar shahri – Aralbay qal'a. Bu qo'rg'on manzili to'rtburchak shaklda bo'lib, tomonlari 180x104 m o'lchamda. Bu yodgorlik chuqur xandaq va baland bo'lmagan paxsa devor bilan o'ralgan. Devorlarining burchaklarida aylana shaklidagi minora-boshnyalar mavjud bo'lib, ulardan o'q otar qurollar uchun foydalanilgan. Qo'rg'on-shahar orqa tomonidan darvozaga ega. Ammo tadqiqot o'tkazilgunga qadar bu shahar ancha vayron bo'lgan. Devorlarning tag qismi 60-70 sm, yuqori qismi 30-40 sm qalinlikda. Devorlar balandligi 2,3-3,2 metrni tashkil etgan. Ularni tiklashda paxsa bilan seksevil (saksovul) yog'ochlari armatura sifatida ishlatilgan. Qo'rg'on-shahar ichida biror bino yoki inshoot izi aniqlanmagan. Biroq kulolchilik buyumlari bo'laklari, kul, ko'mir va yog'och qoldiqlari shu yerda topilgan. XVIII-XIX asr boshlariga oid sirli Xiva idishlari bo'laklari ham arxeologik material sifatida aniqlangan.

Aytib o'tilgan asrlarda qoraqalpoqlar tomonidan xavf tug'ilgan paytlarda bu joylar vaqtinchalik qo'rg'on sifatida foydalanilganini ko'ramiz. Shahar atroflarida zich joylashgan ekin maydonlari va sug'orish tarmoqlari izlari saqlanib qolgan. Ularning orasida balandroqlarda joylashgan o'tov (qora uy) o'rinlari uchraydi. Bu maydonlarda tariq, arpa va bug'doy ekilgan. Bu ekin maydonlari Aralbay qal'a atroflarida joylashgan kanal orqali sug'orilgan. B. V. Andrianovning tadqiqotlariga ko'ra, bu kanal suvga

to'la bo'lgan, Janadaryo bilan bog'langan va atrofdagi yerlarni sug'orishga yetarli kuchga ega bo'lgan. Kanaldan kichik ariqlar, soylar va chiqir inshootlari orqali suv ekin maydonlariga yetkazilgan.

Mazkur shaharlar qatorini XIX asrda qurilgan boshqa qoraqalpoq boylarining manzillari to'ldiradi. XIX asr boshlarida va o'rtalarida qurilgan qoraqalpoq shaharlaridan biri – O'raz Ataliq qal'asi hisoblanadi. O'raz Ataliq Qo'ldovli urug'idan chiqqan bo'lib, o'ng qirg'oqdagi qoraqalpoqlar orasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan. "Ataliq" unvoni Xiva xonlari tomonidan joriy etilgan bo'lib, ko'plab qoraqalpoq urug'larini boshqarib turish uchun ishlatilgan. O'raz Ataliqning qo'rg'on-shahri Qaro'zek tumanida joylashgan bo'lib, Xorazm ekspeditsiyasi xodimi T. A. Jdanko rahbarligida tekshirilgan. Qo'rg'on-shahar ikki darvoza, ikki hayvonxona (o'tovlar uchun), yo'lak va xonalar, otxonalar hamda xo'jalik xonalaridan iborat bo'lgan. Qo'rg'on yonida o'z vaqtida faoliyat yuritgan katta masjid ham mavjud bo'lgan. Albatta, XVIII-XIX asrlarga oid qoraqalpoq xalqining arxeologik yodgorliklari biz yuqorida so'z yuritgan shahar- qo'rg'onlar bilan cheklanmaydi. Qo'ng'iroq, Shaxtemir, Aydos biy qal'asi, Aralbay qal'a, O'raz Ataliq qo'rg'oni bilan bir qatorda Amudaryoning qirg'oqlari bo'ylarida ham ular o'z shahar- qo'rg'onlarini bunyod etganlar [4. – 520-524 b].

Shunday yodgorliklar qatorida Shumanay tumanidagi "Jaña qala" (Yangi shahar, hozirgi G'arbiy Shumanay) qal'asini eslab o'tish o'rinli. Tarixchi-arxeolog O. Yusupovning ko'rsatishicha, Jaña qala haqida Xiva tarixchilari – Muhammad Rizo Ogahiyning "Gulshani davlat", Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asarlarida hamda sayyoh Mirza Abdurahmonning yozuvida XIX asr o'rtalarida tilga olingan. Bu yodgorlikni T.A.Jdanko, R.Kosbergenov, A.Allamuratovlar o'z asarlarida ham eslab o'tishgan [3. – 25-40 b].

Jaña qala hozirgi Shumanay tumanidagi A. Musayev nomidagi dehqon-fermerlar birlashmasining Qiyat jargan massivida joylashgan. Bu qal'a-shahar Qo'ng'iroq va Xo'jayli aholisi bilan savdo aloqalarida muhim rol o'ynagan.

Qal'a to'rtburchak shaklda qurilgan bo'lib, ichida ko'plab xonalar mavjud. Devorlari 2,5-2,7 metr, umumiy o'lchami 250-300 metrni tashkil etadi. Janubiy (qibla) devorda o'n tadan ortiq o'q otish uchun mo'ljallangan teshik (gezən) bor. Ularning o'lchami 18×22 sm, uzunligi 0,9 metr, trapetsiya shaklida qurilgan. Qal'aning ikki darvozasi bo'lgan, ammo bugungi kunda ularning izlari yaxshi bilinmaydi. Bu qal'a Xiva xonligi tomonidan 1855-yilda qurilgan bo'lsa-da, u qoraqalpoqlarning yirik urug'lari – Qiyat, Baymaqli, Qo'ng'iroq, Qitay, Keneges, Qang'li va boshqalar tarixida muhim rol o'ynagan.[5. 10-30 b]

Shunday qal'a-shaharlarning yana biri – Aq Jaqis (Aydos biy qal'asi) hisoblanadi. Aq Jaqisda 1809-yilda qoraqalpoqlarning o'n to'rt urug'i (asosan Qo'ng'iroqlar) Aydos biy boshchiligida birlashgan. Xiva xoni ularning ustidan nazorat o'rnatish uchun 1809-1811-yillarda shu yerda qal'a qurishga majbur bo'ladi. Biroq bu shahar aslida Aydos biy boshchiligidagi qoraqalpoqlarning manzili bo'lgan. XX asrning 1950-60-yillarida o'tkazilgan arxeologik-topografik tadqiqotlar vaqtida qoraqalpoqlarga tegishli qal'a-

shaharlar bilan bir qatorda ko‘p maydonlarni egallagan sug‘oriladigan dehqonchilik yerlari ham aniqlangan.

ADABIYOTLAR:

1. Камалов С.К. Каракалпаки XVIII–XIX вв. – Ташкент, 1961. – с. 57-61.
2. Есбергенов Х. Шахтемир – предшественник г. Чимбая. – Тезисы докладов. *НПК «Шахтемир–Чимбай». – Нукус, 1995. – С. 25.
3. Жданко Т.А. Каракалпаки Хорезмского оазиса. – с. 524.
4. Юсупов О. Жана-кала. // Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР. – 1913. – №3. – с. 10.